



**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FUQAROLARNING HUQUQ
VA ERKINLIKALARINI TA'MINLASH BO'YICHA FAOLIYATINING
O'ZIGA XOSLIGI**

Mamarashidova O'g'iloy Baxodir qizi

Ichki ishlar akademiyasi 317 - guruh kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada profilaktika inspektorlarining fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi faoliyati, ularning vakolatlari, kundalik ish amaliyoti hamda bu sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Shu bilan birga, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish va qonunchilikni amalda qo'llashdagi inspektorlarning o'rni ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, huquqiy madaniyat, fuqaro huquqlari, erkinliklar, qonunchilik, ichki ishlar organlari, jamiyat xavfsizligi, vakolatlar, huquqiy targ'ibot, ijtimoiy muammolar, tashkiliy faoliyat, huquqni muhofaza qilish.

KIRISH

Profilaktika inspektorini shaxsiy jihatdan rivojlantirishda asosiy e'tibor uning kundalik faoliyatida fidoiylik, sadoqat va odillik tamoyillari ustuvorligini ta'minlashga qaratilishi muhim o'rinni tutadi. Shuningdek uning shaxsiy jihatlarida namunaviy xulq-atvor, vazminlik, mushohadalik, bag'rikenglik, olivjanoblik, halollik kabi tuyg'ular mukammal shakllanishi lozim. Shaxsiy jihatlarning sifati va samaradorligi profilaktika inspektorlarida keng dunyoqarash va teran fikrlash qobiliyatining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Ma'suliyat va o'z yurtidan ma'naviy qarzdorlik tuyg'usi ish faoliyatida qat'iylik va sadoqat fazilatlarini shakllantiradi. Eng muhimi, profilaktika inspektori o'z xalqini sevishi va unga mehr qo'yishi aholining dard-u-tashvishlari bilan yashash tuyg'usini vujudga keltiradi. Shu bois ham qayd etilgan shaxsiy fazilatlar zamonaviy profilaktika inspektori qiyofasini yaratishga muhim poydevor vazifasini o'taydi.



Profilaktika inspektorini kasbiy jihatdan rivojlantirish uni zamonaviy qiyofasini yaratishga maxsus yondashuvni talab qiladi. Zamonaviylik avvalo amalgalashirilayotgan islohotlar va voqealardan xabardorlik, dahldorlik va oqilona munosabat bildira olishda namoyon bo'ladi. Shuning bilan birgalikda, ro'y bergan voqealarda-xodisalarga nisbatan mustaqil va oqilona pozitsiya shakllangan bo'lishi lozim. Profilaktika inspektorining kasbiy kompetensiyasi mustahkam huquqiy bilim asosida shakllangan bo'lib, o'z ustida doimiy ishslash orqali soha bilan hamohang yurishga odatlangan bo'ladi. Ta'kidlash joizki, zamonaviy qiyofa xalq bilan muloqot qilish va jamoatchilik bilan ishslashning mukammal shakllanganligi bilan bog'liq. Chunki, profilaktika inspektori qiyofasidagi zamonaviylik darajasi aholi va jamoatchilik tomonidan baholanadi.

Zamonaviy profilaktika inspektori faoliyatining asosiy me'zonlari innovatsion bilim va ko'nikmalar shakllanganligi, o'z kasbiy malakasini mustaqil rivojlantira olish qobiliyatiga egaligi, ish faoliyatida ilg'or axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalana olishi, zamonaviy etika qoidalaridan xabardorligi, xorijiy tillarni o'zlashtirganligi, kommunikativlik, umumiy axborot vositalari bilan ishslash ko'nikmasi, xalq bilan muloqot qilishning yangi usul va shakllarini bilish, kasbiy sohasi va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan muntazam xabardorligi kabi jihatlarda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy profilaktika inspektori qiyofasini yaratishda uning shaxsiy va kasbiy jihatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettiradigan profilaktika inspektorining professional portretini yaratish lozim bo'ladi. Profilaktika inspektorining professional portreti yaratish uning professional standarti, professiogrammasi, professional ramkasi, funksional kartasi, faoliyatini baholash indikatorlari, faoliyat samaradorligini diagnostika va pragnoz qilish metodikasini ishlab chiqish orqali ta'minlanadi.

Jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, aholi osoyishtaligini ta'minlash, mahallani jinoyatchilikdan holi hududga aylantirishda profilaktika inspektorlari muhim o'rinni egallaydi. Aholi o'zining xavfsizligini ta'minlashni so'rab birinchi navbatda profilaktika inspektoriga murojaat qiladi. Albatta, xalqimiz tinch va osuda hayot



kechirishi uchun profilaktika inspektoriga ishonchi yuqori bo'lishi, o'zining xavfsizligi kafolatini profilaktika inspektori timsolida ko'ra olishi lozim. Buning uchun xalqimizga, avvalo, o'zining odobi va xulqi bilan shaxsiy namuna bo'la oladigan, muammoli masalaning yechimi yuzasidan qat'iy yondashuvga ega, ish faoliyatida adolatni namoyon qila oladigan tajribali va mas'uliyatli profilaktika inspektorlari kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent: Adolat, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. – Toshkent: Norma, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.
5. Xoliqov N. "Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati". – Toshkent: Yuridik nashriyot, 2020.
6. Ismoilov M. "Jamoat tartibini saqlashda ichki ishlar organlarining o'rni". – Toshkent: Akademiya, 2021.
7. Yusupov A. "Huquqiy madaniyat va uning rivoji". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. Xudoyberganov D. "Fuqarolarning huquqlari va ularni himoya qilish mexanizmlari". – Samarqand, 2021.
9. Sobirov B. "Ichki ishlar organlarida profilaktika choralari". – Toshkent: Huquq, 2022.
10. MXXI O'quv qo'llanmasi. "Huquqni muhofaza qilish tizimi asoslari". – Toshkent, 2023.
11. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: "Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish choralari to'g'risida" – 2021 yil.
13. Internet manbasi: www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.